



CANADA



CANADA

**NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA BADIY IFODA VA OBRAZLAR
TALQINI**

Pirmatova Shohista Mahmudovna

Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi matbuot kotibi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Nazar Eshonqul hikoyalari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor adibning badiiy ifoda usullari va obrazlar tizimini talqin etishga qaratiladi. Tadqiqot davomida N. Eshonqulning asarlaridagi badiiy tasvirning falsafiy-psixologik mazmuni, shaxsiy kechinmalar va ichki konfliktlar ifodasi ko‘rib chiqiladi. Yozuvchining qahramonlari o‘ziga xos ruhiy murakkablik va ichki ziddiyatlar bilan ajralib turadi. Shuningdek, hikoyalardagi ramziy ifoda, psixologik tahlil usullari va majoziy tasvirlar orqali inson tabiatining chuqur qatlamlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Badiiy ifoda, obrazlar talqini, falsafiy-psixologik tahlil, majoziy tasvir, o‘zbek hikoyachiligi.

KIRISH

Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyotida ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, falsafiy-fikriy yangilanishlar bilan birgalikda badiiy-estetik qarashlar ham tubdan o‘zgarib bordi. Adabiy jarayonda insonning ichki kechinmalarini, ruhiy murakkabliklarini tahlil qilish va uning ma’naviy o‘sish yo‘lini tasvirlash ustuvor ahamiyat kasb etdi. Shu davrda falsafiy mushohada, ruhiy-psixologik tahlil asosida yozilgan asarlar ko‘paydi. Bu jarayonda Nazar Eshonqul ijodi o‘ziga xos o‘rin egalladi. Uning hikoyalari o‘zbek adabiyotiga yangi falsafiy qatlam kiritdi va zamonaviy o‘zbek nasrining rivojlanish yo‘nalishida muhim bosqichni belgiladi.

Nazar Eshonqul hikoyalari mazmuni va shakli jihatidan o‘ziga xos uslubiy izlanishlarning yorqin namunasi hisoblanadi. Adib o‘z asarlarida badiiy ifoda vositalarini zamonaviy adabiy oqimlar bilan uyg‘unlashtirib, milliy va umumbashariy qadriyatlarni teran yoritishga erishadi. Yozuvchi hikoyalarda voqelikni tasvirlashning o‘ziga xos usulini yaratib, ramziy obrazlar, majoziy tasvir va kontrastlar yordamida inson ongi va ichki ziddiyatlarini ko‘rsatadi. Uning “Maymun yetaklagan odam”, “Xayol tuzog‘i”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” kabi asarlari falsafiy mushohada, ruhiy kechinma va majoziy ifodaning yorqin namunasi sifatida adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholangan.

Bugungi zamon adabiyotining asosiy vazifalaridan biri – insonning ichki olamini, ongi va qalbida kechayotgan o‘zgarishlarni ochib berishdan iborat. Bu vazifa Nazar Eshonqul ijodida o‘zining mahoratlari badiiy ifodasini topgan. Adibning hikoyalardagi voqealari faqat tashqi hodisalar jarayonida emas, balki ichki kechinmalar asosida tasvirlanadi. Voqealari rivojida asosiy e’tibor qahramonning ichki dunyosi, uning ruhiy

holati va ichki ziddiyatlariga qaratiladi. Xususan, “Xayol tuzog‘i” hikoyasidagi bosh qahramon Voqifning ichki ziddiyatlari, ma’naviy kurashi va ruhiy inqirozi jamiyat va shaxs o’rtasidagi munosabatlarning umumiy ramzi sifatida talqin qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nazar Eshonqul ijodiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni unchalik ko‘p bo‘lmasa-da, uning hikoyalari adabiyotshunoslар tomonidan falsafiy-psixologik tahlil nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Adabiyotshunos U.Normatovning asarlarida N.Eshonqul ijodidagi modernizm va absurd yo‘nalishlari atroflicha talqin qilinadi. U adibning “Maymun yetaklagan odam”, “Bevaqt chalingan bong” kabi hikoyalarini falsafiy-estetik mezonlar asosida tahlil qilib, undagi zamondosh va zamondosh fojeasi obrazlarining majoziy ifodasi haqida qimmatli xulosalar beradi. Shuningdek, N.Rahimjonovning zamonaviy o‘zbek nasriga oid tadqiqotlarida N.Eshonqul ijodidagi shaxs va jamiyat munosabatlari, insonning ichki dunyosini tadqiq etishga bo‘lgan yangicha yondashuvlar haqida to‘xtaladi. A.Ulug‘ovning maqolalarida adibning obrazlar yaratishdagi o‘ziga xosligi, majoz va ramz vositalaridan foydalanish usullari chuqur tahlil qilinadi. Umuman, N.Eshonqulning ijodiy xususiyatlari haqida adabiy tanqid va adabiyotshunoslilikda bildirilgan fikrlar yozuvchining milliy nasrdagi o‘rnini yuksak baholaydi. Ushbu tadqiqotlar asosida adib hikoyalaridagi obrazlar tizimi, ruhiy tahlil va falsafiy ma’nolarni ochib berish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda badiiy asar tahlili, qiyosiy-tarixiy tahlil, estetik talqin va falsafiy-psixologik yondashuv metodlari qo‘llaniladi. Nazar Eshonqul hikoyalaridagi obrazlar tizimi va badiiy ifoda vositalarini aniqlashda adabiyotshunoslilikning nazariy konsepsiyalari, xususan, V.G. Belinskiy, M.B. Xrapchenko va o‘zbek adabiyotshunoslari Izzat Sulton, U.Normatov qarashlariga tayaniladi. Qiyosiy tahlil metodi orqali N.Eshonqul hikoyalari Sharq va G‘arb adabiy jarayonlari bilan bog‘lab o‘rganiladi. Psixologik tahlil esa hikoyalardagi qahramonlarning ichki kechinmalarini chuqur tahlil qilishda qo‘llaniladi. Bu usullar asarning badiiy-estetik mohiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy ifoda usullari noan’anaviy yondashuvlar bilan ajralib turadi. Adib voqelikni an’anaviy bayondan ko‘ra ramziy tasvir va majoziy timsollar orqali yoritishga alohida e’tibor beradi. Yozuvchining “Maymun yetaklagan odam”, “Bevaqt chalingan bong”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” kabi hikoyalari ana shunday uslubiy yangilanishning yorqin misollaridir.

“Maymun yetaklagan odam” hikoyasida zamondosh qiyofasi, insonning hayotiy xatolari va afsus-nadomati ramziy timsollar orqali ifoda etiladi. Hikoya boshida yosh yigitning maymun yetaklab ketishi va yakunda cholning maymun bilan to‘qayga qaytishi qahramonning hayotiy ziddiyatlarini chuqur ifodalaydi. Bu ramziy tasvir orqali yozuvchi inson umrining ma’nosiz kechishini, xudbinlik va yolg‘on maqsadlar ortidan quvishning fojiali oqibatini namoyon etadi. Yoshlik va keksalikning bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi kontrast usulida amalga oshirilgan bo‘lib, bu usul adabiyotda inson qismati va o‘zgaruvchan dunyoqarashni tasvirlashda ko‘p ishlataladi. Shuningdek,

"Bevaqt chalingan bong" hikoyasida xabarni oldindan bildirish, kutilmagan o'limni timsollar orqali ifodalash adibning badiiy mahoratini namoyon etadi. Bong sadolarining bevaqt chalinishi hayotning kutilmagan burilishlari va insonning o'lim oldidagi ojizligini ifodalaydi. Bu ifoda usuli majoz va ramz vositasida hayotiy mazmunni chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Nazar Eshonqul hikoyalarida oxirgi satrlarning ma'nodor va keskin bo'lishi o'quvchini o'ylashga, tahlil qilishga undaydi. Bu usul, adabiyotshunoslarning ta'kidlashicha, o'quvchi bilan dialogni kuchaytiradi va asarning estetik ta'sirini oshiradi.

Nazar Eshonqul hikoyalaridagi obrazlar o'zining falsafiy teranligi va ruhiy murakkabligi bilan o'zbek adabiyotining ilg'or tamoyillarini aks ettiradi. Adibning qahramonlari an'anaviy didaktik ko'rinishda emas, balki ichki ziddiyatlar girdobidagi insonlar sifatida gavdalanadi. Ular oddiy qahramonlar emas, balki o'z zamonasining voqeliklari, ijtimoiy munosabatlari va insonning ichki kechinmalarini ifodalaydigan timsollar sifatida maydonga chiqadi. Masalan, "Xayol tuzog'i" hikoyasida bosh qahramon Voqifning ichki kechinmalari, ruhiy tangligi va irodasizligi muallif tomonidan chuqur tahlil qilinadi. Voqif hayotdagi omadsizliklar, ijtimoiy muhitning bosimi va o'z irodasining zaifligi sabab o'z ichki dunyosiga qamalib qoladi. Bu hikoya orqali yozuvchi insonning o'z hayotiga mas'uliyat bilan qarashi zarurligini ta'kidlaydi. "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasidagi Bayna momo obrazi esa kuchli iroda, jasorat va o'zgarmas ma'naviy qadriyatning timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Uning yolg'izligi, erining va o'g'lining qatl etilishi ortidan uning ichki dunyosida kechayotgan qahr va shijoat nafaqat xotira va sha'n masalasini, balki hayot va o'lim falsafasini ham aks ettiradi. Bu obrazning tragik qismati orqali yozuvchi shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni yorqin namoyon etadi.

Nazar Eshonqul ijodida falsafiy mushohada va psixologik tahlil yetakchi o'rin tutadi. Uning hikoyalarida hayot, o'lim, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ziddiyatlar falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Bu jarayonda insonning ichki kechinmalari, psixologik holatlari va ichki ziddiyatlari yuksak mahorat bilan ohib beriladi. "Xayol tuzog'i" hikoyasi falsafiy tahlilning yorqin namunasidir. Bu hikoyada Voqif o'z xayollariga qamalib qolgan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Hikoya davomida muallif insonning o'z ichki dunyosini o'rganish zaruratini o'quvchiga uqtiradi. Odamning o'z kechinmalari, xotiralari va o'zligini tanishi oson emas, biroq ana shu jarayonni yengib o'tish, ichki dunyoni anglash zarurligi ta'kidlanadi. Bu hikoyada shaxsiy erkinlik va ma'naviy mas'uliyat masalalari chuqur falsafiy mushohadalarga tayanadi. Falsafiy-psixologik tahlilda N.Eshonqulning yozuv uslubi G'arb adabiyotining Kafkaga xos "absurd" yo'nalishlari bilan mushtarak jihatlarga ega. Insonning o'zini o'rab olgan jamiyat voqeliklariga moslasha olmasligi, unga qarshi ichki kurashish jarayonlari hikoyalarning asosiy falsafiy muammolarini tashkil etadi. Adib ijodida adabiy uslubning yangiligi bir nechta asosiy jihatlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, uning asarlarida ramz, majoz, qarama-qarshilik va kontrastlar keng qo'llaniladi. Masalan, "Maymun

yetaklagan odam" hikoyasidagi yosh yigit va qari cholning yo'nalishlari kontrast orqali talqin qilinadi. Ikkinchidan, hikoyaning "ochiq tugallanish" usulida yakunlanishi o'quvchini o'ylashga, hikoyaning mohiyatini anglashga undaydi. Uchinchidan, adibning uslubiy yangiligi hikoyalardagi zamon va makonning o'ziga xos talqinida namoyon bo'ladi. N.Eshonqul makon va zamonni faqat voqelikni tasvirlash uchun emas, balki qahramonning ichki dunyosini ko'rsatish vositasi sifatida ham qo'llaydi. Bu holat "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. To'rtinchidan, hikoyalardagi til va uslubning keskinligi, ba'zan qora bo'yoqlarga boyligi ham uning ijodiy individualligini ko'rsatadi. Adib voqelikning o'zini emas, balki insonning ichki kechinmalarini tasvirlashga urg'u beradi. Bu uslubiy xususiyat adibning milliy nasrdagi yangilik kiritgan yozuvchi sifatidagi mavqeini belgilaydi.

Xulosa. Umuman olganda Nazar Eshonqulning hikoyalari o'zbek hikoyachiligi rivojida muhim o'rinni tutadi. Uning badiiy ifoda va obrazlar tizimida falsafiy-psixologik mushohada, ramziy ifoda va ruhiy tahlil tamoyillari yetakchilik qiladi. Hikoyalardagi qahramonlar ichki kechinmalar, ijtimoiy ziddiyatlar va irodasizlik girdobida namoyon bo'lib, o'quvchini chuqur o'ylashga undaydi. N.Eshonqul ijodi milliy nasrni zamonaviy falsafiy oqimlar bilan boyitdi, qolaversa, uning ijodi zamonaviy o'zbek hikoyachiligidagi yangicha badiiy-estetik tamoyillarni shakllantirgan ijodiy hodisalardan biri hisoblanadi. Uning hikoyalari adabiyotning faqat bayoniylar voqelikni tasvirlash vazifasidan chiqib, inson ichki dunyosini olib berishga qaratilgan. Yozuvchi tasvirlayotgan qahramonlar faqat tashqi voqealar ishtirokchisi emas, balki o'z ichki dunyosi bilan ziddiyatga tushuvchi, kechinmalari orqali o'quvchiga tasavvur maydonini kengaytiruvchi personajlardir. N.Eshonqul hikoyalari o'zining falsafiy-psixologik tahlillari, ramziy obrazlari va tasviriy ifoda usullari bilan o'zbek nasrini yangi bosqichga ko'tardi deyish mumkin.

Nazar Eshonqulning badiiy ifoda va obrazlar talqini bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, adib o'zbek adabiyotiga badiiy-estetik yondashuvning yangi tamoyillarini olib kirgan ijodkor hisoblanadi. Adibning qahramonlari nafaqat ijtimoiy voqelikni aks ettiradi, balki o'z ichki dunyosi bilan kurashayotgan, ma'naviy yuksalishga intilayotgan shaxslar sifatida namoyon bo'ladi. Hikoyalarda bayon etilgan falsafiy mushohadalar, ramziy tasvirlar va ruhiy tahlillar N.Eshonqulning ijodini nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti tajribasi bilan bog'laydi. Ushbu xulosalar milliy adabiyotning o'ziga xos rivojlanish bosqichini anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar.-T.: Fan, 1978. I jild.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy tarixiy jarayon..-T.: Fan, 1979. II jild.



CANADA

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION
International scientific-online conference



CANADA

3. Adabiyot-ruhiyat mulki (Adiblarimizning ijod sirlari haqida durdona fikrlaridan).-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
4. Boltaboev H. Nasr va uslub: hozirgi o'zbek nasrida uslubiy izlanishlar.-T.: Fan, 1992.
5. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-T.: O'zbekiston, 2002.
6. Vladimirova N.V. O'zbek hikoyachiligidagi oya va obraz.-T.: Fan, 1969.
7. Nasrimiz ufqulari.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
8. Nasrimizning badiiy olami.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
9. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar.-T.: Ma'naviyat, 2000.